



TURKEY'S PARTICIPATION IN GEOPOLITICAL PROCESSES IN THE MIDDLE EAST REGION

Sirojiddin ABDUVOITOV

Chief Advisor

Secretariat of the Central Election Commission

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Middle East, geopolitics, Turkey, Central Asia, foreign policy, security.

Abstract: This article analyzes the participation of Turkey in geopolitical processes in the Middle East region.

Received: 28.04.24

Accepted: 30.04.24

Published: 02.05.24

YAQIN SHARQ MINTAQASIDAGI GEOSIYOSIY JARAYONLARDA TURKIYANING ISHTIROKI

Sirojiddin ABDUVOITOV

Bosh maslahatchi

Markaziy saylov komissiyasi Kotibiyati

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yaqin Sharq, geosiyosat, Turkiya, Markaziy Osiyo, tashqi siyosat, xavfsizlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yaqin Sharq mintaqasidagi geosiyosiy jarayonlarda Turkiyaning ishtiroki tahlil etilgan.

УЧАСТИЕ ТУРЦИИ В ГЕОПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ В БЛИЖНЕВОСТОЧНОМ РЕГИОНЕ

Сирожиддин АБДУВОИТОВ

Главный юрисконсульт

Секретариат Центральной избирательной комиссии

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ближний Восток, геополитика, Турция, Центральная Азия, внешняя политика, безопасность.

Аннотация: В данной статье анализируется участие Турции в геополитических процессах в ближневосточном регионе.

KIRISH

Zamonaviy xalqaro munosabatlar transformatsiyasida muhim geostrategik o'rin egallaydigan Yaqin Sharq mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikning ta'minlanishi jahon miqyosida ham tinchlikning mustahkamlanishiga olib keladi. Binobarin, geosiyosiy nuqtai nazaridan Yaqin Sharq mintaqasi ko'plab mamlakatlarning manfaatlari tutashgan mintaqaga hisoblanadi. U yerda sodir bo'layotgan so'nggi paytdagi voqea-hodisalar esa hech bir davlatni befarq qoldirmaydi. Murakkab etnik va diniy muhit, hududiy nizolar hamda boshqa muhim omillar tufayli Yaqin Sharq uzoq davrdan beri ixtiloflar makoniga aylanib qolmoqda. Qolaversa, Yaqin Sharq mintaqasida yetakchilikni qo'lga olmoqchi bo'lgan tashqi kuchlarning aralashuvi vaziyatni yanada chigallashtirib yubormoqda. Bu esa o'z navbatida, Yaqin Sharq mavzusi hozirda zamonaviy xalqaro munosabatlarning "qaynoq" siyosiy masalalaridan biriga aylanib ulgurdi.

ASOSIY QISM

Ilmiy adabiyotlar, publisistik asarlar va OAVda "Yaqin Sharq" atamasi ko'p uchrashiga qaramasdan ushbu hududning chegaralari aniq ko'rsatib o'tilmagan.

"Yaqin Sharq" atamasi yevropaliklar tomonidan o'zlariga nisbatan Sharqiy tomonda joylashgan mamlakatlarga ishlatilgan ibora bo'lib, asosan Usmoniylar imperiyasi hududlariga nisbatan qo'llanilgan. Keyinchalik, Usmoniylar imperiyasi parchalanishi bilan uning hududlarida tashkil topgan mustaqil davlatlarga ham ushbu atama ishlatilishi davom etmoqda.

XX-asr boshlarida Yaqin Sharq hozirgi Misr, Sudan, Isroil, Iordaniya, Suriya, Livan, Turkiya, Iroq, Saudiya Arabistoni, Yaman, Quvayt, Ummon, BAA, Bahrayn, Qatar, Kipr va Arab davlatlari hududlarini hamda Bolqon yarim oroli mamlakatlarini Usmoniylar imperiyasining bir qismi sifatida o'z ichiga olgan. Lekin, bugungi kunda ham olimlar tomonidan Yaqin Sharq mintaqasining chegaralari aniq belgilanmagan.

Yaqin Sharq tushunchasi XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida qo'llanila boshlangan bo'lib, hozirgi kundagi Yaqin Sharq bo'yicha britaniyalik arxeolog D.Xogart tomonidan 1902-yilda chop etilgan "Yaqinroq Sharq" asarida Yaqin Sharqni O'rta yer dengizidan sharqqa qaragan hududlar ekanligini ta'kidlab o'tgan, ammo, uning qayerda tugagani haqida aniq ma'lumot bermagan.

Yaqin Sharq mintaqasining geosiyosiy raqobatlar obyekti bo'lishiga sabab, bu mintaqada ko'p miqdorda mavjud bo'lgan tabiiy resurslar va mintaqaning Yevropa hamda Osiyoning tutashgan nuqtasida ya'ni tovarlar tranzit o'tish hududida joylashganidir.

Yaqin Sharq mintaqasi tabiiy resurslarga juda ham boy bo'lib, dunyo bo'yicha aniqlangan neft zaxirasining 48,3 foizi, tabiiy gaz zaxirasining 37,8 foizi ushbu mintaqaga to'g'ri keladi.

Shuningdek, 2021 yilda jami dunyo bo'yicha qazib olingan neftning 31,2 foizi hamda gazning 17,7 foizi Yaqin Sharq davlatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda [1].

Tadqiqotchi I.A.Melixovning ta'kidlashicha, dunyoda energoresurslarga bo'lgan talabning oshib borishi Yaqin Sharq mintaqasida joylashgan neft va gazga boy davlatlarning dunyo siyosatidagi o'rni hamda roli ham oshib boradi[2].

Bundan tashqari, U.Z.Sharipovning fikricha, mintaqada bo'lib o'tayotgan barcha (inqiloblar, mazhablar o'rtasidagi kelishmoqchiliklar va x.k) jarayonlar bevosita "neft omili" bilan bog'liq [3].

Yaqin Sharq davlatlariga bo'lgan qiziqishning yuqoriligini ushbu davlatlarga nisbatan "Katta Yaqin Sharq" va "Yangi Yaqin Sharq" konsepsiyalarining ishlab chiqilganligida ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu mintaqadan energiya resurslarni sotib oluvchi davlatlar mintaqani hayotiy muhim manfaatlari sifatida qarashadi [4].

Turkiya tashqi siyosatini olib borish bo'yicha uchta yo'nalish kurash olib bormoqda deyish mumkin: jumladan, Yevropaga xos bo'lgan davlat qurishni hohlayotgan – modernistlar, musulmon jamiyati va Yaqin Sharqqa yuzlangan – islomchilar Turkiyani mintaqada faol siyosat olib borishini talab qilishmoqda. Mazkur yo'nalishlar tarafdorlari o'rtasidagi kelishmovchilik Turkiyaning mintaqadagi ahamiyatini oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Ma'lumki, davlat tashqi siyosatini belgilashda konsepsiyalar va tamoyillarning ahamiyati katta. Bugungi kunda Turkiya tashqi siyosati sobiq tashqi ishlar vaziri Axmad Dovut o'g'lining "strategik chuqurlik: Turkiyaning xalqaro o'rni" asari asosida shakllangan konsepsiyasi asosida olib borilmoqda deyish mumkin. Ushbu konsepsiya asosida belgilanayotgan tashqi siyosat tamoyillari Turkiyaning mintaqadagi muammolarni yechishda ishtirok etishiga sharoit yaratmoqda. Jumladan, "Qo'shnilar bilan nol muammo" tamoyili orqali chegaradosh davlatlardagi konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha Turkiyaning tashabbus ko'rsatishi va mediatorlikni taklif etishiga imkon berdi. Ushbu tashabbuslar muammolarni to'liq yechishga olib kelmadi. Xususan, Suriyadagi beqarorlikni bartaraf etish bo'yicha 2011-2012 yillarda amalga oshirgan tadbirlari o'zining kutilgan natijalarini bermadi. Shunday bo'lsada, Axmad Dovut o'g'li tomonidan ishlab chiqilgan "strategik chuqurlik: Turkiyaning xalqaro o'rni" tashqi siyosat konsepsiyasida quyidagilarga alohida e'tibor qaratilgan:

- *mamlakat ichida va musulmon dunyosi bilan umumiy kelishuvga erishish (Yaqin Sharq);*
- *-mazkur mintaqalar mamlakatlariga imperialistik pozitsiyadan turib qarshi chiqmaslik;*
- *-tashqi siyosiy faoliyatda sobiq Usmonlilar imperiyasi tarkibiga kirgan mamlakatlarni "yumshoq kuch" yordamida integrasiyaga jalb qilish.*

Aytib o'tishimiz lozimki, Yaqin Sharq mintaqasi – bu Qora dengiz, Qizil dengiz, Arab dengizi, Fors ko'rfazi va Kaspiy dengizi oralig'ida joylashgan hududdir. Turkiya Respublikasining janubi - sharqiy hududlari Yaqin Sharq mamlakatlari bilan chegaradosh (*Eron bilan 449 km, Iroq bilan 331 km va Suriya bilan 822 km*).

Turkiya Respublikasining paydo bo'lganidan buyon Yaqin Sharq davlatlariga nisbatan olib borayotgan tashqi siyosatini ikki davrga ajratishimiz mumkin.

Birinchi davr - bu Turkiyaning ilk prezidenti hisoblangan Mustafo Kamol Otaturk tomonidan 1923-yilda Usmonlilar imperiyasi o'rnida Turkiya Respublikasi tashkil topishi bilan tashqi siyosatida birinchi navbatda dunyo davlatlari bilan (*shuningdek, mamlakat ichida ham*) tinchlikni ta'minlashga e'tibor qaratilgan. M.K.Otaturk tomonidan olib borilgan siyosatning manbaasi va asosini “Yurtda tinchlik, dunyoda tinchlik” tamoyili asosida tashkil etilgan bo'lib[5], ushbu tamoyilga ko'ra, Turkiya tashqi siyosatining asosiy maqsadi chegaradosh bo'lgan barcha davlatlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatish, tinchlik yo'lidagi bitimlar va kelishuvlar imzolash, xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishdan iborat bo'lgan edi.

Ikkinchi davr – bu Naqshbandiya tariqati izdoshlaridan biri bo'lgan N.Erbakanning hukumat tepasiga kelishi bilan boshlagan “panislomiy” siyosatini keltirishimiz mumkin. Ushbu davrda Turkiya musulmon davlatlari bilan munosabatlarini rivojlantirish lozimligini bildirgan holda, Yaqin Sharq davlatlari bilan mavjud muammolarni hal qilish bo'yicha amaliy tadbirlarni boshlagan.

N.Erbakan hokimiyatda uzoq qolmadi va shuningdek u hokimiyatda bo'lgan davrda ham koalision hukumat mavjud bo'lganligi sababli, u o'z siyosatini erkin olib bora olmadi. N.Erbakanning o'ziga xos tashqi siyosiy harakatlariga 1997-yil Eronga tashrifi chog'ida tarkibida Turkiya, Eron, Bangladesh, Misr, Indoneziya, Malayziya, Nigeriya va Pokiston kabi davlatlar kirgan D-8 (*G-8ning musulmoncha analogi*) ning tashkil qilinishini misol keltirishimiz mumkin. E'tiborli jihati shundaki, mazkur iqtisodiy xalqaro tuzilmada Saudiya Arabistoni o'rin olmagan edi. Bir paytning o'zida bu davrda Turkiya ichki siyosatida islomlashuv kuzatilayotgan edi. Kamolchilik g'oyasi ostidagi harbiy hokimiyat uchun bu chegaradan chiqish bo'lib, Erbakan 1997-yil Xavfsizlik Kengashi tomonidan hokimiyatdan chetlatildi hamda uning partiyasi mamlakatda taqiqlandi.

Bu “harbiy to'ntarish” Turkiya Islom kuchlarining qayta guruhlashuvida muhim rol o'ynadi va “Islomiylik”dan chekingan holda yangi siyosiy kuch “Adolat va Taraqqiyot partiyasi” tashkil etilishiga sabab bo'ldi.

Bugungi kunda Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlariga nisbatan olib borayotgan tashqi siyosati ham 2002-yilda Turkiya hukumati tepasiga R.T.Erdog'on boshchiligidagi Adolat va

Taraqqiyot Partiyasi (bundan buyon -ATP) kelishi bilan yangidan shakllana boshlagan. Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlariga bo'lgan tashqi siyosatini A.Dovut o'g'li tomonidan ishlab chiqilgan "Qo'shnilar bilan nol muammo" konsepsiyasini amalga oshirishdan boshlangan. A.Dovut o'g'lining fikrlariga ko'ra, Turkiya oldingi davrda Usmonlilar imperiyasi hududiga kiruvchi Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlaridagi o'z pozitsiyalarini tiklashi lozim[6]. Shuningdek, mintaqadagi davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashni Turkiya hukumatining ustuvor maqsadlari sifatida qaraydi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun Turkiya Suriya, Eron va Iroq kabi davlatlar bilan o'z munosabatlarini yaxshilagan. Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlari bilan aloqalarining mustahkamlangani ushbu mamlakatlar bilan doimiy nizoda bo'lgan Isroilga nisbatan munosabatlarda sovuqlashuvni yuzaga keltirgan. Shuningdek, Turkiyaning Yaqin Sharq davlatlaridagi manfaatlari Saudiya Arabistoni, Misr va Eron singari davlatlar manfaatlari bilan to'qnash kelgan.

Turkiyaning Yaqin Sharq mamlakatlari bilan munosabatlarini yaxshilanishiga YIga a'zo bo'lishga qilgan harakatlarining amalga oshmaganligi bilan ham bog'liq. Yaqin Sharq davlatlari bilan yaqinlashishiga tashqi omillar bilan birgalikda ichki omillar ya'ni mamlakat ichida milliy va islomiy kayfiyatdagi shaxslarning ko'payishi bilan ham bog'liq. 2011-yilda o'tkazilgan so'rovnoma asosan 43 foiz turklar NATO Ittifoqi zarurligini ko'rsatishgan bo'lsa, 53 foiz turklar YIga a'zo bo'lishiga qarshi ekanliklarini hamda 43 foiz turklar Yaqin Sharq davlatlari bilan iqtisodiy aloqalarga kirishish YIdan ko'ra afzal ekanini ta'kidlashgan.

XULOSA

Bugun Turkiya Yaqin Sharq mintaqasiga nisbatan o'zining faol tashqi siyosatini olib bormoqda. Bu jarayonda geosiyosiy va geoiqtisodiy omillar (geografik, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy) muhim ahamiyatga ega. Turkiya o'zining joylashuviga ko'ra, turli madaniy hududlarga tegishli bo'lib Sharq va G'arbning kesishgan nuqtasida hamda Islom va xristian dunyosi oralig'ida, bir nechta mintaqalar kesishuv nuqtasida, uzoq muddatli mojarolar bo'lgan Yaqin Sharq, Bolqon, Kavkaz, dunyoviy va diniy madaniyatlar orasida joylashgan.

Bundan tashqari, Turkiya energetik va savdo-iqtisodiy sohalarni rivojlantirib, xalqaro ahamiyatdagi davlatga aylanib bormoqda. Bu borada u iloji boricha mintaqada o'z ta'sirini kuchaytirish, mamlakatning siyosiy jarayoniga ta'sir etuvchi buzg'unchi tashqi va ichki mintaqaviy muammolarga qarshi kurash olib bormoqda.

Turkiyaning bugungi kundagi Yaqin Sharq davlatlari bilan munosabatlarida davlatlarning suverentengligi tamoyilining ayrim hollarda buzilishini va Turkiya hukumatining bir qator buzg'unchi guruhlariga o'z hududidan boshpana berayotganligini ko'rish mumkin. Xususan, Suriyadagi muholifat kuchlariga, bunday holatlar Turkiyaning mazkur mintaq davlatlari bilan

ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarga salbiy ta'sir etmoqda. Turkiya tashqi siyosatini belgilashda Yaqin Sharq mintaqasidagi beqarorliklar bilan birga iqtisodiy, madaniy va milliy omil o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Turkiya Yaqin Sharq davlatlari bilan iqtisodiy va xavfsizlik sohalarida munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdor bo'lib, kelajakda ushbu siyosatini davom ettiradi.

Yaqin Sharqdagi geosiyosiy jarayonlarda tashqi kuch omili, uning mintaqadagi etnosiyosiy munosabatlarga ta'siri o'zining uzoq tarixiy ildizlari va xususiyatlariga ega bo'lib, bugungi kunga qadar saqlanib qolmoqda. Albatta, bu birinchi navbatda, mintaqa energetik resurslarini qo'lga kiritish, va shu orqali jahon geosiyosiy jarayonlari yetakchi davlat sifatida o'z pozitsiyalarini mustahkamlash va ushbu hududda mutloq hukumdorlikni o'rnatish kabi strategik maqsadlarda namoyon bo'lmoqda. Garchi bu holat yana davom etadigan bo'lsa, yaqin kelajakda Yaqin Sharq mintaqasida dunyoning yetakchi mamlakatlari jumladan, AQSh, YeI, Rossiya, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlarning manfaatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazuvchi yirik qurolli to'qnashuvlar sodir bo'lishi mumkin. Afsuski, bugungi kunda mintaqada, bunday to'qnashuvlar bo'lish ehtimoli yuqoriligicha qolmoqda.

Bizning fikrimizcha, mana shunday holatda mintaqada tashqi kuch ta'sirini kamaytirish, ular o'rtasidagi kuchlar muvozanatini saqlash, mintaqa xavfsizligini ta'minlash uchun, quyidagi tahlil va fikrlarimizni bildiramiz:

birinchidan, so'nggi paytlarda, Yaqin Sharq mintaqasida uzoq vaqtdan buyon davom etayotgan Falastin-Isroil mojarosining nihoyatda xavfli tus olganini barchamiz guvohi bo'lmoqdamiz. Darhaqiqat, qurolli to'qnashuvda tinch aholi, ayniqsa, keksalar, ayollar va bolalar qurbon bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida, nizoning keng yoyilib ketish xavfi tobora kuchayib borayotganini anglatadi. Falastin xalqi Birlashgan Millatlar tashkiloti rezolyutsiyalarida belgilanganidek, mustaqil davlat barpo etish huquqiga egaligini inobatga olib, Falastinning aniq chegaralarni belgilash;

ikkinchidan, mintaqadagi kurdlar muammosini hal qilish;

uchinchidan, mintaqa davlatlari munosabatlarida madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalarni rivojlantirish,

to'rtinchidan, tashqi tahdidlarga birgalikda kurashishga asosiy e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.bp.com/content/dam/bp/business-sites/en/global/corporate/pdfs/energy-economics/statistical-review/bp-stats-review-2022-full-report.pdf>

2. Мелихов И.А. Арабские монархии Персидского залива на этапе модернизации (70-90-е годы) //автореферат дисс. док.ист.наук.-М., 2000.
3. Шарипов У.З. Международные отношения в регионе Персидского залива и роль нефтяного фактора (Запад и страны региона).//автореф. Дисс. док.полит.наук.-М., 1999.-С.5
4. Ас Сакин Камрам. Реконструкция региональных отношений. - Дубай, 2001.
5. Исмоилов Р. Туркия Республикаси ташқи сиёсатининг асосий йўналишлари. Шарқшунослик. 2007. №2. – Б.95-99.
6. Об изменениях в военно-политической обстановке на Ближнем Востоке и в Северной Африке (17-23 сентября 2012 года) - <http://www.iimes.ru/?p=15626>